

**MAKTAB YOSHIGACHA BO'LGAN BOLALARDA XORIJIY TILLARNI
O'QITISH METODIKASI**

*Ilmiy rahbar: Yuldasheva F.F
UzDJTU katta o'qituvchisi
Shohsanam Hamroyeva Jaloliddin qizi
O'zDJTU 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsadimiz, maktab yoshigacha bo'lgan bolalarda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi haqida yetarlicha ma'lumot berilib, bu metodlarni tadqiq qilishdir. Chunki hozirgi kunda maktab yoshigacha bo'lgan bolalarga turli xil chet tillarini o'rgatish ommalashib bormoqda va tillarni oson o'rgatishda turlicha metodlar qo'llanilmoqda.

Annotation: Our main aim from writing this article is to research these techniques by providing enough information about the methodology of teaching foreign languages in children up to school age. Because nowadays it is becoming popular to teach different foreign languages to children up to school age, and different techniques are used in Easy Language Teaching.

Аннотация: наша главная цель при написании данной статьи-изучить эти методики с достаточной информацией о методике обучения иностранному языку у детей дошкольного возраста. Потому что в настоящее время обучение детей дошкольного возраста различным иностранным языкам становится все более популярным, и различные методы используются для легкого обучения языкам.

Kalit so'zlar: metodika, xorijiy tillar, psixologiya, mashg'ulotlar, mimika, so'zlar, qo'shiq.

Keywords: methodology, foreign languages, psychology, training, facial expressions, words, singing.

Ключевые слова. методика, иностранные языки, психология, обучение, мимика, слова, пение.

Hozirgi kunda chet tillarini o'rganish yoshlar o'rtasida judayam ommalashgan, va davlat siyosati darajasigacha ham ko'tarilgan. Chet tillarini o'qitish uchun ko'plab tajribali mutaxassislarni tayyorlash uchun ko'plab shar-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Xorijiy tillarni esa Maktabgacha Ta'lim Muassasalarida ta'lim olayotgan yosh bolalardan boshlab o'rgatish anchayin foydalidir. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishni yaxshilash va rivojlantirish bo'yicha bir qator qonunlar qabul qilingan. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Chet tillarini o'rganish tizimini

yanada takomillashtirish to'g'risida»¹gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda 2013–2014-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzlusiz o'rgatishning joriy etilishi buning isbotidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorining
1 – bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o'rnlarda — Agentlik) hamda Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilganligi.²

“Til bilmoq - el bilmoq”dir. Chet tillarini o'rganish zamon talabiga ko'tarilgan, va ko'pchilik yosh talabalar tillarni o'rganishda jonbozlik ko'rsatishmoqda. Albatta til o'rganish yaxshi ammo maktabgacha bo'lган ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bolalarga chet tillarini o'qitish ancha mushkul hisoblanib, bu bo'yicha ko'plab metodikalar ishlab chiqilgan. Quyida ulardan ba'zilarini ko'rishingiz mumkin:

1. Ko'rgazmali qurollar, plakatlar va kitoblar orqali ishslash.

Bog'chalarda chet tillarini o'qitishda, o'sha chet el muhitini yaratish biroz qiyin, shuning uchun tillarni o'qitishda turli xil ko'rgazmali quollardan, plakatlar, o'yinchoqlar va bolalarga moslashgan turli xil video va qo'shiqlardan foydalanish ularning o'sha muhitni tasavvur qilishiga samarali foyda beradi. Misol tariqasida ingliz tilini olaylik, bu tilni o'rgatish jarayonida bolaga so'z yodlatish jarayonida xonadagi jihozlardan foydalanish ko'proq samara beradi. Biz har doim ko'rib yurgan va atrofimizni o'rab turgan buyumlarni inglizcha tarjimasini yodlash osonroq. Har xil qiziqarli tasvirlar va rangli harflar bilan to'ldirilgan kitobchalaridan foydalanish bolalarning o'rganishga bo'lган ishtiyoqini oshiradi. Chunki bu bolalar hali o'zlarining tillarida o'qish va yozishni to'liq bilmaydilar. Shuning uchun rasmiy kitoblarni ta'limda qo'llash eng yaxshi metodlardan biridir.

2. Sinf muhitini yaxshilash uchun qo'shiq va harakatli o'yinlardan foydalanish.

Bolalarni doimiy so'z yodlatish, biron so'zni o'rgatish orqali zeriktirib va ularning o'rganishga bo'lган motivatsiyasini yo'qotib qo'yishimiz turgan gap. Shu sababli ularni chalg'itish va o'qitishga qiziqtirish uchun harakatli qo'shiqlar va harakatli

¹ Yuldasheva Dilorom Aliyevna, Kichik yoshdagи bolalarga ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullari. 22.02.2017

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.05.2021 yildagi 312-son

o'yinlardan foydalanish kerak. Shu bilan birga tarbiyachi ham bu jarayonlarda faol qatnashish kerak, bolalarni yonida bolalarcha harakat qilish kerak. Chunki tarbiyachi ularni qanchalik qiziqtira olsa bolalarda shunchalik yaxshi natijaga erishish mumkin. Chunki har qanday ta'limda ham jarayon va natija muhim.

Moslashuvchan sinf atmosferasini yaratish, ba'zida har qanday ta'lim usulidan ko'ra muhimroqdir. Sinfda dars boshida inglizcha yoqimli qo'shiq bilan o'qituvchi boshchiligidagi barcha bolalar birgalikda qo'shiq kuyladilar va uning ohangiga mos ravishda biroz raqsga tushadilar. Bu o'z-ozidan ularning tanalarini chiniqtirib, yanada tetik bo'lishga va qo'shiqn ni so'zlarini tezroq yod olishga yordam beradi. Inglizcha muhit, muhimi, yaxshi o'quv atmosferasiga tabiiy ravishda kirishga imkon beradi. Bolalarning o'zini-o'zi boshqarish qobilyati sust bo'lib, butun mashg'ulot davomida e'tiborini jamlashi va egallab olishi qiyin. Shuning uchun, o'qituvchi bolalar tinglashni yaxshi ko'radigan qo'shiqlarni, she'rlarni yoki tilni chiniqtirish uchun tez aytishlarni, yoki bo'lmasam bolalar yaxshi ko'radigan animatsion multfilmni taqdim etishi kerak. Tabiiyki, bolalar multfilmlardagi barcha so'zlarini tushuna olishmas, lekin multfilm qahramonlarini tomosha qilish orqali ularni gaplarini tushunishga harakat qilishadi.

3. Ta'lim jarayonida imo-ishoralardan foydalanishning ahamiyati

Bolalar imo-ishoralarni, ya'ni yuz mimikasi bilan aytilgan so'zlarini yaxshiroq tushunadilar. O'qituvchilar bolalarga buyruq berishayotganda, rag'batlantirayotganda, tushuntirayotgan narsasining muhimpliligini aytmoqchi bo'lganda yuz imo-ishoralardan foydalanishganda bolalar buni tezda tushunishadi. Ingliz tilida bu usul judayam muhim hisoblanadi.

4. Bilimlarni mustahkamlash uchun jumboqli o'yinlardan foydalanish

Takrorlash bilimni mustahkamlaydi. Uni esa jumboqli o'yinlar orqali qilish esa anchayin qiziqarli va samaradordir. Jumboqli o'yinlarda xato qilish holatlari kuzatiladi, bolalarni esa xato bo'lsada gapirishga majburlash kerak. Chunki xato qilish va uni to'g'irlashga harakat qilish orqali bolalarni bolalardan moslashuvchanlik va chiqishuvchanlikni oshirish mumkin. Bu esa bolaning kelajagiga ham ta'sir qiladi. U o'zida bo'lgan, ya'ni boshqa tilda gapirishda xatolardan qo'rmaslikka olib keladi. Bu esa albatta ta'lim jarayonlarida muhim rol kasb etadi.

Biz xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bolalikdan til o'rganish judayam muhim. "Yoshlikda olingen bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir"- degan bobolarimiz. Darhaqiqat, bolalarning yoshlikdan bilimga bo'lgan qiziqishini oshirish, chet tillarini bilish orqali xorijiy davlatlarga chiqish imkoniyatini oshirishini, dunyo bo'yicha, dunyo xalqlari haqida yetarlicha tasavvurga ega bo'lishlarini tushuntirishimiz eng muhim vazifalardandir. Chunki kelajagimiz yoshlar qo'lida. Bolalarni o'qitish bo'yicha dunyo olimlari, tajribali pedagoglar ko'plab samarali metodlar, usullar ishlab chiqishgan va ularni ta'limda tadbiq qilishgan. Biz yuqorida ulardan bir nechtasini ko'rib chiqdik. Bu metodlar eng ommalashgan metodlar hisoblanadi. Afsuski,

davlatimizda M.T.M tarbiyachilarining va ota-onalarning hammasi ham bu usullarni bilishmaydi. Biz bu maqolamiz orqali bu metodlarni ommaga yaqindan tanitishdir. Mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish uchun salmoqli chora-tadbirlar olib borilmoqda, zero jamiyat va davlat ma'naviyatini biz bilimda ko'ramiz. Bu maqolada biz bir nechta metodlardan qanday foydalanishni va ularning samaradorligini ko'rib chiqdik, bu esa albatta siz o'quvchilarga foydali bo'ladi. Maqolamizni o'qigan har bir kishi bu usullarning qanchalik muhim ekanligini tushunib yetadi. Ishonchimiz komilki, maqolamiz xalqimiz uchun manfaatli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldasheva Dilorom Aliyevna, Kichik yoshdagи bolalarga ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullari. 22.02.2017
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.05.2021 yildagi 312-son
3. Shomansurov Shorasul, Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi
4. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.